

Angor yog'dusi

Gazeta 1980-yil 26-noyabrdan chiqa boshlagan
Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi va tuman hokimligining gazetasi : 2024-yil 15-yanvar
№ 1 (3405) dushanba.

2024-yil «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»

Bayram nishonlandi

Angor tumanida 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligiga bag'ishlab tadbir

tashkil etildi. Dastlab, tuman hokimi Qosim Mardonov barcha Vatan himoyachilarini qutlug' ayyom bilan tabrikлади. Shundan so'ng, tuman hokimligi, huquq-tartibot



idoralari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mehnat faxriylari va keng jamoatchilik jam bo'lib, Motamsaro ona monumenti poyiga gullar qo'yishdi.

Vatan himoyachilari kuniga

bag'ishlab o'tkazilgan tadbirida tuman madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan tayyorlangan konsert dasturi ham namoyish etildi.

Angor tumani hokimligi axborot xizmati

Xalq Deputatlari Surxondaryo viloyati Angor tuman Kengashining Q A R O R I

2023-yil 30-dekabr

VI-70-261-8-109-K/23

Angor tumani hokimligi

Angor tumanining 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalari, Budget kodeksining 99-moddasi, "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrda 22-04-13/7535-son xati va xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrda VI-81-232-8-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni rahbarlik va iro uchun qabul qilinadi.

2. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida" Qonuniga muvofiq, Angor tuman mahalliy budgetining 2024-yil uchun daromadlari 81,0 mlrd. so'm, xarajatlari 150,2 mlrd. so'm prognoz qilinganligi hamda respublika budgetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar 69,2 mlrd. so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinadi.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy budgeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinadi.

4. 2024-yil uchun tuman budgetidan budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun viloyat budgetidan tuman budgetiga umumdavlat soliqlaridan

ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budgetining daromadlari va xarajatlarning prognozi 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinadi.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy budgetiga viloyat budgetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, viloyat budgetidan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdorlari tuman mahalliy budgeti daromadlari prognozi ijrosidan qat'i nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinadi.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy budgetining tuman budgeti zaxira jamg'armasi, tuman budgetining 2024-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budgetni tasdiqlangan umumiy xarajatlarning kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin ya'ni hajmlari 1,3 mlrd. so'm miqdorida belgilansin.

Angor tumani budgetini iro etishda yuqori turuvchi budgetdan ularga ajratiladigan budgetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budgetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinadi.

9. 2024-yil uchun tuman budgeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

(Davomi 3-betda)

Konstitutsiyamizni o'rganamiz

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi 2023-yil 1-may sanasidan kuchga kirdi. U 6 ta bo'lim, 27 ta bob va 155 ta moddadan iborat.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar

41-modda.

Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

42-modda.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalash huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

"ANGOR YOG'DUSI" ga obuna davom etmoqda

Aziz mushtariylar! Sizning eng yaqin hamkoringiz, xabarchingiz va maslahatchingiz bo'lgan "Angor yog'dusi" gazetasiga obuna davom etmoqda.

Obuna Agro bank Angor tuman bo'limidagi tahririyatning h/r 20210000200430813001 MFO: 00343, INN: 200481845 raqamiga to'g'ridan-to'g'ri pul o'tkazish va naqd pul to'lash orqali amalga oshiriladi.

Gazetaning yillik bahosi tahririyat bilan to'g'ridan-to'g'ri obuna bo'lganda 175000 cym.

OBUNA-2024



Vatan himoyasi-muqaddas burch

Ona Vatan! Nima uchun Vatanni ona so'zi bilan yonma-yon ishlatamiz? Chunki, Vatan ham onamiz singari aziz, mehribon va qadrlidir. Inson dunyoga kelmasidan avval onaning vujudida ulg'aysa, dunyoga kelganidan keyin esa Ona Vatanda unib o'sadi.

Kishining tug'ilganda kindik qoni to'kilgan yer uning Vatani hisoblanadi. Mana shu Vatanni asrab-ardog'lash, himoya qilish har bir insonning muqaddas burchidir.

Yurtida vatanni sevadigan, ardoqlaydigan va himoya qiladigan

mardlar bor ekan, shu yurt doimo yuksalaveradi, gullayveradi. Har bir el, har bir millat uchun o'zining tug'ilib o'sgan vatanidan ardoqli maskan bo'lmasa kerak.

Bu bejiz emas, albatta 1992-yil 14-yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixida muhim tarixiy hujjatga imzo kechildi. Shu kundan boshlab mamlakatimizda har yili 14-yanvar "Vatan himoyachilari kuni" bayrami o'zida erkin xalqimizning muqaddas bir bayrami sifatida eng nishonlanib kelinmoqda.

Barchamiz bugungidek

tinch, xotirjam hayotimiz Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda himoya qilinmoqdaki, mana shunday ma'suliyatli burchni sidqidildan ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo'layotgan o'g'lonlarimizni har qancha e'zozlasak, ko'kka ko'tarsak arziydi.


Ona yurtimiz har doim o'zining mard, jasur yigitlari bilan faxrlanib kelgan. Yigitlarimiz ota-ona va oilasini, o'zi yashayotgan yurt tuprog'ini muqaddas bilib, Vatan himoyasi uchun doim shay turushni burch deb hisoblagan. Ushbu

bayramning nishonlanishi xalqimizning o'z armiyasiga nisbatan cheksiz hurmatini, yigitlariga nisbatan iftixorini bildiradi. Bunday foravon hayot uchun avvalo yurtboshimizga, so'ng Milliy armiyamizga qancha rahmat aytak ham kam. Armiyamiz, bu bizning, o'zbek xalqining milliy g'ururidir.

Bayramingiz muborak bo'lsin aziz Vatanimiz himoyachilari.

Baxtiyor JO'RAYEV,
Angor tuman davlat arxivi yetakchi arxivchisi

TOMORQA — DAROMAD MANBAI!



Bugungi kunda yurtdoshlarimiz tomorqa oila uchun rizq-ro'z, qo'shimcha daromad manbai ekanligini yaxshi bilishadi. Shu bois ham tomorqadan unumli foydalanib, yil davomida uch marotaba ekin ekib hosil olishadi.

Har bir qarich yerdan unumli foydalanib kelayotgan tumandoshlarimizdan biri Jamshid Qurboniyozov. U tumaning Ulug'bek mahallasida istiqomad qiladi. Oila a'zolari bilan birgalikda tomorqasining 2 sotixida issiqxona tashkil qilgan. Jamshidning imkoniyati cheklanganligi sababli «Yoshlar daftari»ga



kiritilib, motokultivator ajratildi. Xonadonda kabachki va turli xil ko'kat parvarish qilinmoqda.

—Boshida bir sotixlik issiqxona qurgandik, — deydi Jamshidning onasi Nigora Abdurahmonova. — Hozirda

tomorqamizda 2 ta issiqxona bo'lib, jami maydoni 2 sotix bo'ldi. Yana bitta issiqxona qurilishini boshlaganmiz. Bir yilda 20-30 million so'm daromad olamiz. Daromad mehnatimizga yarasha bo'lmoqda. Farzandlarimiz

bilan el dasturxonini ta'minlash maqsadida mehnat qilamiz. Xaridorlarning o'zlari uyimizdan olib ketadi.

Gavhar JUMAYEVA

Sarhisob

2023-yilda surxondaryolik soliq to'lovchilar qancha soliq to'lashdi?

O'tgan 2023-yilda viloyatimiz soliq to'lovchilari tomonidan 2 trln 829,5 mlrd so'm miqdorida soliq to'lanib, belgilangan prognoz rejasiga 163,4 mlrd so'm ortig'i bilan bajarildi.

Budjetga yo'naltirilgan mablag'larning asosiy qismi 2 trln 491,1 mlrd so'm yoki 88 foizi yuridik shaxslar, 338,3 mlrd so'm yoki 12 foizi esa jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

Soliq turlari bo'yicha tahlil qilinganda: 1 trln 83,9 mlrd so'm yoki 38,3 foizini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; 504 mlrd so'm yoki 17,8 foizini qo'shilgan qiymat solig'i; 321 mlrd so'm yoki 11,3 foizini jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk solig'i; 194 mlrd so'm yoki 6,9 foizini aksiz solig'i;



726,6 mlrd so'm yoki 25,7 foizini esa boshqa soliqlar va yig'imlar tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati soliq boshqarmasi Matbuot xizmati

Qonunchilikdagi yangiliklar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 15-noyabrda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ-878-son Qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, sanitariya qonunchilikni, sanitariya normalarini, qoidalarini va gigiena normativlarini buzish:

- fuqarolarga BHMning 5 baravaridan 10

baravarigacha; mansabdor shaxslarga 15 baravaridan 20 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarga muvofiq: Litsenziyani yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to‘g‘risidagi arizani rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- qonunchilikda nazarda tutilgan faoliyat turlari uchun 1 yil muddatga litsenziyani olish;
- sudning qaroriga (hukmiga) asosan shaxsga nisbatan muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanish taqiqlanganligi.

Shuningdek, litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat quyidagi hollarda ham bekor qilinishi belgilandi:

- litsenziat yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxs tomonidan litsenziya yoki ruxsat berish talablari va shartlari muntazam ravishda (1 yil davomida ikki va undan ortiq marta) buzilganda;
- litsenziya yoki ruxsat berish talablari va shartlari 1 marotaba qo‘pol ravishda buzilganda, agar mazkur qoidabuzarlik fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga ziyon, jismoniy va yuridik

faoliyat turlari bo‘yicha litsenziyalash va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ etib belgilandi:

- alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi;
- pivo va pivo ichimliklarini ishlab chiqarish va ulgurji savdo qilish faoliyati.

Tamaki mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilish Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligini xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi.

Tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish esa joylardagi tuman (shahar) soliq inspeksiyalarini xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

G‘.TILOVQOBILOV, Angor tumani adliya bo‘limi boshlig‘i

YER UCHASTKALARINI XUSUSIYLASHTIRISHGA DOIR ARIZANI BERISH VA KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

-Yer uchastkalarini xususiyalashtirishga doir ariza:-

- O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi tomonidan — tadbirkorlik, shaharsozlik faoliyatini va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun o‘ziga berilgan va doimiy foydalanish (egalik qilish) yoki ijara huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan yer uchastkalariga nisbatan;
- O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi tomonidan — yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyi obodonlashtirish,

shuningdek tadbirkorlik hamda shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun o‘ziga berilgan va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish yoki ijara huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan yer uchastkalariga nisbatan beriladi.

- Yer uchastkasiga bo‘lgan doimiy foydalanish (egalik qilish), meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara huquqi tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslariga o‘tganda ularga mazkur yer uchastkasini xususiyalashtirishga bo‘lgan

huquq ham o‘tadi.

- Agar yer uchastkasi bir nechta xususiyalashtirish subyektlining birgalikdagi egaligida yoki foydalanishida bo‘lsa, ariza barcha subyektlarning fuqarolik qonunchiligiga muvofiq tuziladigan kelishuviga ko‘ra, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda sud tomonidan belgilanadigan tartibda beriladi.
- Ariza davlat xizmatlari markaziy yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali beriladi.
- Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

- Ariza yer uchastkasini xususiyalashtirish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ladi.
- Arizani ko‘rib chiqish Yer uchastkalarini xususiyalashtirish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir ma‘muriy reglamentga muvofiq avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi.
- Arizani ko‘rib chiqish natijasi ijobiy yoki salbiy qarorni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan xabarnomadan iborat bo‘ladi.
- Ijобiy qaror mavjud bo‘lgan xabarnoma xususiyalashtiriladigan yer uchastkasining sotib olish qiymatini arizachi tomonidan to‘lash uchun asosdir.
- Salbiy qaror mavjud bo‘lgan xabarnomada yer uchastkasini xususiyalashtirish mumkin emasligining asoslantirilgan sabablari shaharsozlik hujjatlarining aniq talablariga yoki qonunchilik normalariga havola qilingan holda ko‘rsatiladi.
- Arizani ko‘rib chiqish natijalari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

YER UCHASTKALARINI XUSUSIYLASHTIRISH SHAKLLARI

-Yer uchastkalarini xususiyalashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- xususiyalashtirish subyektlari tomonidan o‘ziga doimiy foydalanish (egalik qilish), ijara yoxud meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida tegishli bo‘lgan yer uchastkalarini sotib olish;
- yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali sotib olish.

Xususiyalashtirilmaydigan yer uchastkalari

- Quyidagi yer uchastkalari

xususiyalashtirilmaydi: foydali qazilma konlari joylashgan yer uchastkalari, bundan zaxiralari foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansii hisobiga olinmagan keng tarqalgan foydali qazilmalar mustasno;

- tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlari va tarixiy-madaniy maqsadlar uchun mo‘ljallangan yerlar tarkibiga kiruvchi yer uchastkalari, shuningdek o‘rmon hamda suv fondlarining, shaharlar va shaharchalarning umumiy foydalanishdagi yerlari

(maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sohil bo‘ylari, skverlar, xiyobonlar, istirohat bog‘lari);

- qonunchilikka muvofiq xususiyalashtirilmaydigan davlat mulki obyektlari joylashgan yer uchastkalari;
- shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qonunchilikda cheklovlar o‘rnatilgan hududlardan foydalanish zonalarida joylashgan yer uchastkalari;
- xavfli moddalar bilan zararlangan va biogen zaharlanishga duchor bo‘lgan yer uchastkalari;

qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga taqdim etilgan yer uchastkalari — maxsus iqtisodiy zona faoliyat ko‘rsatadigan davrda;

- ko‘p kvartirali uylar joylashgan, shuningdek, ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvlar va shartnomalarni amalga oshirish uchun berilgan, shuningdek yuridik shaxslarga jamoat ehtiyojlari

uchun berilgan yer uchastkalari.

- Yer uchastkalarini xususiyalashtirishda fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqi belgilanishi mumkin.

Sh.OSTONAQULOV, Surxondaryo viloyati adliya boshqarmasi Notariati, advokatura va huquqiy xizmatlar sho‘basi bosh maslahatchisi

SUD HUJJATLARINI QAYTA KO‘RIB CHIQISHNING YANGI TARTIBI JORIY ETILDI

So‘ngi yillarda sud tizimini takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad eng avvalo fuqarolar va tadbirkorlik sub‘ektlarining adolati sudlovga foydalanish darajasini oshirish, shuningdek, uchinchi hokimiyat hisoblanadigan va davlatning ustunlarining birini sudning mavqeiini mustahkamlashdir.

Yurtimizda qonun ustivorligini ta‘minlash va shaxslarning manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Iqtisodiy protsessual, Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Qayd etilgan qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga qanday omillar sabab bo‘ldi?

1. Sud qarorlarini qayta ko‘rishda o‘rta bo‘g‘in sudlari (viloyat sudlari hamda ularga tenglashtirilgan sudlar)ning imkoniyatlaridan samarali va to‘laqonli foydalanish ehtiyoji;
2. Shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatlari kamligi (apellyatsiya shikoyatini berish muddati o‘tkazib yuborilsa va shu instantsiyada ish ko‘rilmasa, kassatsiya tartibida shikoyat

berish imkoni yo‘qligi);

3. Kassatsiya instantsiyasi sud majlislarida ishtirok etish uchun taraflarning boshqa hududdagi sudga borish ehtiyoji mavjudligi.
4. Ishni ko‘rib chiqish muddatlarini uzoqligi (avval yuqori instantsiya sudi tomonidan ishni yangidan ko‘rish uchun birinchi instantsiya sudiga yuborish amaliyoti mavjud edi).

Mazkur o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritilishi natijasida, tumanlararo, tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instantsiyada ko‘rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqish vakolati berildi. Bu tartib odil sudlovga erishish imkoniyatlari yanada oshiradi hamda aholining sudma-sud ovora bo‘lib yurishiga barham beradi.

Birinchi instantsiya sudining qaror yoki ajrimidan norozi taraflar viloyat sudiga apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilib, ularning ham natijasidan qoniqmasa, ushbu ish mazkur sudlarda taftish tartibida ko‘rib chiqiladi, bu yangi institut hisoblanadi va taftish tartibidagi shikoyat (protest) ishni taftish tartibida ko‘radigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi qaror qabul qilguniga qadar o‘tgan taqdirda, taftish tartibidagi shikoyat (protest) kassatsiya instantsiyasi sudi tomonidan qaror qabul qilguniga qadar o‘tgan taqdirda, taftish tartibidagi shikoyat (protest) berish muddati kassatsiya instantsiyasi sudi qaror qabul qilgan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘atiga taftish tartibida shikoyat (protest) berish muddati o‘tgan kundan e‘tiboran uch oy ichida berilgan va shikoyat (protest) berish muddatining o‘tkazib yuborilishi sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo‘lsa, tiklanishi mumkin.

Taftish shikoyatida (protestida) taftish instantsiyasi sudining nomi, shikoyat (protest) berayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), uning joylashgan yeri (pochta manzili yoki yashash joyi) sudning hal qiluv qarorini, qarorni qabul qilgan sudning nomi, ishning

raqami, hal qiluv qarori, qaror qabul qilingan sanasi, shikoyat (protest) berayotgan shaxsning talablari va shikoyat (protest) berayotgan shaxs sud hujjatini qonunlarga yoki boshqa qonunchilik hujjatlariga, ish holatlariga hamda dalillarga havola qilgan holda noto‘g‘ri deb hisoblashiga oid asoslari, ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatilishi kerak.

Taftish tartibidagi shikoyat shikoyatni berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak. Protest uni keltirgan mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo‘lishi kerak.

Amalga oshirilayotgan ishlar fuqarolarni sudlarga murojaat qilinish kafolatlarini oshirishga, ularning buzilgan huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, qonuniy manfaatlarini kengroq himoya qilishga, odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirishga, ishlarni sifatli va o‘z vaqtida ko‘rilishiga erishishga qaratilgandir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, sud tizimidagi joriy etilayotgan yangiliklar hamda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar yurtimizda inson manfaatlari himoya qilish uchun xizmat qiladi.

Nilufar BOBOMURADOVA, Surxondaryo viloyat ma‘muriy sudining sudyasi

HUQUQIY AXBOROT

KASABA UYUSHMALARINING AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASHDA ISHTIROK ETISHI...

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari aholi bandligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha, shu jumladan, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va mavjudlarini saqlab qolish, tashkilotlar faoliyatini yaxshilash, xodimlarning ommaviy ravishda ishdan bo‘shatilishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni taklif etish huquqiga ega.

Ish beruvchi kamida ikki oy oldin tegishli kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning manfaatlarini ifodalovchi kasaba uyushmalari birlashmasiga xodimlar ommaviy ravishda ishdan bo‘shatilishi mumkinligi haqida axborot taqdim etadi va ishdan bo‘shatish oqibatlarini yumshatishga qaratilgan maslahatlashuvlar o‘tkazadi.

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari ish beruvchining xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo‘shatish haqidagi qarorini olti oygacha bo‘lgan muddatga to‘xtatib turish to‘g‘risidagi taklifni mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko‘rib chiqish uchun kiritish huquqiga ega.

Jamoa shartnomasida yoki kelishuvda nazarda tutilgan hollarda, tegishli kasaba uyushmasining yoki boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotining oldindan berilgan roziligsiz mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan tugatishga, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yilmaydi.

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari aholini ish bilan ta‘minlash sohasidagi boshqa tadbirlarda ham “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishtirok etishi mumkin.

U.TOG‘AYEV, Angor tumani YXKM bosh yuristkonsuli

XODIMLARNI OMMAVIY RAVISHDA ISHDAN BO‘SHATISH

-Xodimlarning umumiy soni yuz kishidan ortiq bo‘lgan tashkilotlardan ro‘yxatdagi xodimlar o‘rtacha sonining o‘n va undan ortiq foizi ishdan bo‘shatilishi **xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo‘shatish** deb hisoblanadi.

- Mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo‘shatish to‘g‘risidagi qarorlarni mahalliy mehnat organlarining taqdimnomalari bo‘yicha yoki mustaqil ravishda olti oygacha muddatga to‘xtatib turishi mumkin, bunda bir vaqtning o‘zida ushbu kechiktirish tufayli ko‘rilgan zarar tashkilotlarga qisman yoki to‘liq kompensatsiya qilinadi.
- Mahalliy mehnat organlari ishdan ommaviy ravishda ishdan bo‘shatilyotgan xodimlarga ishma joylashish va bandlikni ta‘minlashda, shu jumladan, bepul kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga va malaka oshirishga yuborish orqali ko‘maklashadi.

B.BOYNAZAROV, Angor tumani YXKM bosh yuristkonsuli

AUTSTAFFING XIZMATLARI?

Autstaffing - ish beruvchi tomonidan o‘z xodimlarini ularning roziligi bilan boshqa yuridik shaxslarga ushbu xodimlar tomonidan ish beruvchi va uning xodimi o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida, shuningdek, jamoa kelishuvlarida belgilangan mehnat vazifalarini bajarish uchun vaqtinchalik yuborish yo‘li bilan ko‘rsatiladigan xizmatlar turidir.

Autstaffing xizmatlari - ish beruvchi va boshqa yuridik shaxs o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida ko‘rsatiladi.

- Xodimlar autstaffing xizmatlari ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq mehnat vazifalarini ular ish beruvchi tomonidan qaysi yuridik shaxsga yuborilgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsning manfaatlarini ko‘zlab, uning boshqaruvi va nazorati ostida amalga oshiradi. Xodimlar mehnatiga haq to‘lash ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.
- O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar autstaffing xizmatlari ko‘rsatish huquqiga ega. Ish beruvchi tomonidan o‘z xodimlarini ular mehnat vazifalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida bajarish uchun yuborish bilan bog‘liq autstaffing xizmatlari ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.
- Autstaffing xizmatlari ko‘rsatish tartibi va autstaffing xizmatlari ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalar bo‘yicha bajarilishiga yo‘l qo‘yilmaydigan ishlar turlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

J.MO‘MINOV, Angor tumani YXKM bosh yuristkonsuli

BANDLIK-NIMA?

Bandlik- fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

- Fuqarolarga o‘zining ishlab chiqarishga va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalanish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan, shu jumladan, haq to‘lanadigan ishni bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha mutoq huquq tegishlidir.
- Quyidagi fuqarolar band deb hisoblanadi: mehnat shartnomasi bo‘yicha haq evaziga to‘liq yoki to‘liqsiz ish vaqti shartlari asosida ishlayotgan yoxud kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan, shuningdek, haq to‘lanadigan boshqa ishga, shu jumladan, vaqtinchalik ishga ega bo‘lgan fuqarolar;
- kasalligi, ta‘tilida bo‘lishi, kasbga tayyorlashda, qayta tayyorlashda yoki malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarish to‘xtatib turilganligi munosabati bilan shuningdek, qonunchilikka muvofiq vaqtincha ish joyida bo‘lmagan xodimning ish o‘rni saqlanib qoladigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo‘lmagan fuqarolar;
- haq to‘lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar;
- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati tizimida, bojxona organlarida va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarda xizmatni o‘tayotgan fuqarolar;
- o‘zini ish bilan mustaqil ravishda ta‘minlayotgan fuqarolar, shu jumladan, hunarmandlar, oilaviy korxonalarining ishtirokchilari, dehqon xo‘jaliklarining, ishlab chiqarish kooperativlarining a‘zolari, fermer xo‘jaliklarining a‘zolari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olingan shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish) bo‘yicha, shu jumladan, fuqaroviy-huquqiy tushdagi shartnomalar bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa shaxslar;
- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar;
- o‘z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan diniy tashkilotlarda ishlayotgan fuqarolar.

K.TURSUNOV, Angor tumani YXKM boshlig‘i

Tenglik hukm surgan joyda sotqinlik, aldamchi ehtirolar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi.

Bugunning chorasini ko‘rib ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.

ABU RAYHON BERUNIY

Bekor qilinadi

Angor tumani «Farovon» MFYda yashovchi Sattorova Feruza Turg‘unovnaga tegishli bo‘lgan davlat raqam belgisi 75 C 849 TA bo‘lgan «DAMAS» rusumli avtomashinaning texnik pasportlari yo‘qolganligi uchun bekor qilinadi.

Angor tumani «Yangi hayot» MFYda yashovchi Yuldashev Faxriddin Amirkulovichning, «Gilambob» MFYda yashovchi Chorshanbiyev Sodiq Soatmurodovichning, «Ilg‘or» MFYda yashovchi Choriev Baxriddin Zokirovichning, «Zang-Gilambob» MFYda yashovchi Aqilulov Muxiddin Eshbo‘riyevichning haydovchilik guvohnomalari, «Bahor» MFYda yashovchi Norkulov Baxrom Borotovichning ogohlanish taloni yo‘qolganligi uchun bekor qilinadi.

Angor tuman Mudofaa ishlar bo‘limi tomonidan 1986 yil 10 yanvarda Kenjayev Ashur Xoikovichga berilgan (СВИДЕТЕЛЬСТВО серия А № 624240) raqamli guvohnoma yo‘qolganligi uchun bekor qilinadi.

Xalq Deputatlari Surxondaryo viloyati

Angor tuman Kengashining

Q A R O R I

2023-yil 30-dekabr

VI-70-261-8-109-K/23

Angor tumani hokimligi

Angor tumanining 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida

10. Qonunga asosan 2024-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

- qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- benzin, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;
- ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga huquq uchun yig'imlar;
- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlar va g'ildirakli transport vositalari, o'zi yurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilitatsiya yig'imidan tashqari);
- avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imlar;
- davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar;
- b) Viloyatning viloyat budgetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar to'lig'icha o'tkaziladi:
- elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) 100 foizi;
- foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) 100 foizi o'tkaziladi.
- v) Quyidagi soliq turlari tuman budgetiga to'liqligicha o'tkazib beriladi:
- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha

deklaratsiyaga asosan shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;
- aylanmadan olinadigan soliq;
- 11.Tuman hokimining molliya – iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (O'vuldoshev, tuman Iqtisodiyot va molliya bo'limi (S.Quchqorov), tuman soliq inspeksiyasi R.Jo'rayev) tumandagi mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:
- tegishli budgetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarning rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;
- mahalliy budget prognoz ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va samarali bajarish;
- budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;
- budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;
- tuman mahalliy budgetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;
- budget daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratish.
- 12. Tuman soliq inspeksiyasi (R.Jo'rayev) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:
- soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida quyidagi undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;
- yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarning to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;
- aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;
- bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratish;
- xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish;
- kadastr agentligi tuman bo'limi (A.Ziyodullayev) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulkleri maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulkarga nisbatan soliqlarning to'liq hisoblanishini ta'minlasin.
- 13. Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi (R.Xudoyqulov) tuman soliq inspeksiyasi (R.Jo'rayev) bilan

boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rib borishni ta'minlasin.

14. Tuman Irrigatsiya bo'limi (Sh.Ishaliyev) va tuman soliq inspeksiyasi (R.Jo'rayev) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritilgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to'liq hisoblanishini hamda molliya yili yakuniga qadar mahalliy budgetga to'liq undirib olish choralarini ko'rsin.

bunda, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

15. Tuman ichki ishlar bo'limi, tuman yo'l harakati xavfsizligi bo'limi, majburiy ijro byurosi tuman bo'limi (R.Xudoyqulov), tuman Adliya bo'limi (G'.Tilovqobilov) hisoblangan boji, jarima va yig'imlarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda budgetga undirish choralarini ko'rib borsin.

16. Tuman hokimligiga:

- tuman budget jami xarajatlarning 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirishni;
- bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashi hamda hokim yordamchilari budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;
- mahalliy budgetning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek, qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.
- 17. Tuman hokimining molliya – iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari, iqtisodiyot va molliya bo'limi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:
- mahalliy budget daromad va xarajatlarning prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;
- ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha xalq deputatlari tomonidan Kengashiga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.
- 18. Mazkur qaror "Angor yog'dusi" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.
- 19. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.
- 20. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Q.MARDONOV

Kengash raisi

Xalq deputatlari
Angor tuman Kengashining
2023-yil «30» dekabrda
VI-70-261-8-109-K/23-sonli qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy budget daromadlarining
2024-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

ming so'mda

T/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	80 999 000
1	Yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	7 117 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2 040 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	20 395 500
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	0
5	Aksiz solig'i, jami	14 958 000
	<i>shu jumladan:</i>	
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	14 958 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 546 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 340 000
8	Yuridik shaxslar yer solig'i	3 405 500
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	17 971 000
10	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	15 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	306 000
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Ijara to'lovi	100 000
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
16	Davlat mulkini xususiy lashtirishdan tushgan tushum	
17	Yig'imlar	3 805 000
II.	Respublika budgetidan ajratilgan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar	69 238 873
	Daromadlar hammasi	150 237 873

Xalq deputatlari
Angor tuman Kengashining
2023-yil «30» dekabrda
VI-70-261-8-109-K/23-sonli qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Angor tumani budgetidan birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag' ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	150 237 873
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	150 237 873
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
	Tuman va shahar mahalliy budgetlariga transfertlar	
1.	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi muassasalari xarajatlari	15 085 057
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	15 085 057
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
2.	Sog'liqni saqlash tizimi muassasalari xarajatlari	73 604 234
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	73 604 234
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
3.	Madaniyat tizimi muassasalari xarajatlari	3 374 253
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 374 253
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
4.	Yoshlar siyosati va sport tizimi muassasalari xarajatlari	6 341 741
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 341 741
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
5.	Soliq inspeksiyasi xarajatlari	3 644 731
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 644 731
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
6.	Irrigatsiya bo'limi xarajatlari	1 133 763
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 133 763
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
7.	Qishloq xo'jaligi tizimi muassasalari xarajatlari	1 930 930
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 930 930
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budgetiga 2024-yil uchun ajratmalar me'yori

Foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Aylan-madan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i (3 111 401)	Jismo-niy shaxs-lar-ni ng mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxs-lar-ni ng mol-mulkiga solinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyuqltirilgan gaz yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga sotishdan aksiz solig'i	Yuridik shaxs-lar-ni ng mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalan-ganlik uchun soliq	Yuridik shaxs-lar yer solig'i	Yig'im-lar	Ijara to'lov-lari	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan tushadigan tushumlar (3 450 950, 3 450 951 daromad kodi bo'yicha) tushumlar
1	Angor tumani	100	100	100	100	50	50	100	100	50	100	100	50	50

TUMANDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KORXONA, TASHKILOT VA FERMER XO‘JALIKLARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

2023-yil yakuni uchun taqdim etiladigan 1-KB shakli (yillik) davlat statistik hisobotini kichik korxona va mikrofirmalar (chet el investitsiyalari va xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalardan tashqari) 2024-yilning 27-fevralidan kechiktirmay;

1-notijorat shakli (yillik) davlat statistik hisobotini notijorat tashkilotlari (jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari (XUJMS dan tashqari) 2024-yilning 11-martidan kechiktirmay;

1-FX shakli (yillik) davlat statistik hisobotini fermer xo'jaliklari 2024-yilning 27-fevralidan kechiktirmay;

1-NNT shakli (yillik) davlat statistik hisobotini jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari 2024-yilning 4-martidan kechiktirmay;

2023-yil yakuni uchun yillik 1-mehnat shakli (yillik) davlat statistik hisobotini yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari (kichik korxona va mikrofirmalar, xususiy uy-joy egalari shirkatlari, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning

MINNATDORCHILIK

Ma'lumki insoniyatning dastlabki yashash davrlaridan boshlab yo'l, suv, oziq-ovqat, o'tin, chiroq muammolari bo'lib kelgan. 2023-yilda tumanimizdagi ichki yo'llar deyarli bitqazildi. Oziq-ovqatdan muammo deyarli yo'q. Oxirgi quloqlargacha suv kelib turibdi.

Elektr energiyadan ham nolimsak bo'ladi. Tumanimizning chekka qishloqlariga ham suyiltirilgan gaz yetkazilmoqda. Yuqoridagi ishlarni bajarayotgan boshliqlarga ming qo'shchiga bir boshchi deganlaridek hokimimiz Qosim Mardonovning olib borayotgan ishlaridan mamnummiz.

Xo'jamberdi MUSTANOV,
faxriy o'qituvchi

№	Ko'rsatkichlar	miqdori
8.	Iqtisodiyot va molliya bo'limi xarajatlari	1 893 325
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 893 325
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
9.	Obodonlashtirish boshqarmasi xarajatlari	13 298 861
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 298 861
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
10.	Mahalliy hokimiyat organlari xarajatlari	24 734 889
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	24 734 889
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
11.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi xarajatlari	4 304 056
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 304 056
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
12.	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xarajatlari	220 794
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	220 794
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
13.	Xalq qabulxonasi xarajatlari	49 969
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	49 969
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	
14.	Axborot kutubxona markazi xarajatlari	621 270
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	621 270
	ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yimlar	

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining 2023-yil «30» dekabrda VI-70-261-8-109-K/23-sonli qaroriga 4-ilova		
Angor tuman mahalliy budgetining 2024-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi ming so'mda		
Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Angor tumani	80 999 000	150 237 873

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining 2023-yil «30» dekabrda VI-70-261-8-109-K/23-sonli qaroriga 5-ilova		
Angor tuman mahalliy budgetining 2024-yilgi yuqori budgetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdori ming so'mda		
Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar
Angor tumani	69 238 873	24 310 300

Izoh: *Tamaki, alkalog mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratilgan mablag'lar

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining 2022-yil «31» dekabrda VI-57-266-8-109-K/22-sonli qaroriga 6-ilova	
Angor tuman mahalliy budgetida 2024-yil uchun yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdori ming so'mda	
Hudud nomi	Miqdor
Angor tumani	793 880

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining 2023 yil «30» dekabrda VI-70-261-8-109-K/23-sonli qaroriga 3-ilova	
Angor tuman mahalliy budgetida 2024-yil uchun yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdori ming so'mda	
Hudud nomi	Miqdor
Angor tumani	793 880

o'zini o'zi boshqarish organlaridan tashqari) 2024- yilning 1-fevraldan kechiktirmay;

Statistika hisobotlari, internet jahon axborot tarmog'i vositasida statistika hisobotini elektron shaklda ylg'ish axborot tizimi e-Stat orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda taqdim etiladi. e-Stat avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo'lgan statistika hisobotlarining elektron shaklini (namunasini) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.hisobot.stat.uz rasmiy saytidan va viloyat statistika boshqarmasining www.surxonstat.uz saytidan yoki tuman statistika bo'limidan olishlaringiz mumkin.

Mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibining buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarining buzishi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215-moddasida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Angor tuman statistika bo'limi Tel: 31-21-258

“Oila muqaddas” loyiha faoliyati



Surxondaryo viloyati “Ayol va shodlik” ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondining granti asosida “Oila muqaddas” nomli loyihasi Angor, Sherobod, Muzrabot tumanlarida amalga oshirilmoqda. Loyiha muddati 10 oy (2023-yil may – 2024-yil mart) Loyihaning maqsadi:

Oilada sog'lom, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashga ko'maklashish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, namunali, tinch, sog'lom, mustahkam oilalar sonini oshirish, notinch oilalarni moddiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlashdan iborat. Loyiha doirasida “Sog'lom oila-sog'lom jamiyat” mavzusida oilada sog'lom, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashga ko'maklashish, xotin-qizlarning tibbiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida “Yuqori Xujayqa” “Yuqori tallashgan” to'liqin”, “Yuqori Tallimaron” mahalla xotin-qizlar uchun “Oilada

birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va uy hamshiraligi” ikki oylik o'quv kurs tashkil qilindi. “Uy hamshiraligi” o'quv kursida 72 nafar xotin-qizlar faol ishtirok etib, oilada birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'ldi. Dastur asosida haftada 4 kun nazariy va amaliy darslar tashkil etilgan bo'lib, malakali tibbiyot xodimi, loyiha treneri Nargiza Kuchkinova tomonidan “Sog'lom turmush tarzi, oilada birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, qon bosimini o'lchash, doridarmonlarni saqlash usullari, ularni to'g'ri ishlatish, muolaja turlari va ularni to'g'ri bajarish tartiblari to'g'risida”gi amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'tkazildi. O'quv kursi yakunida bitiruvchilarga sertifikat topshirildi.

Shuningdek, “Ayol va shodlik” markazining malakali tibbiyot xodimi, psixolog, huquqshunoslari tomonidan yoshlarga “Sog'lom oila – sog'lom jamiyat” mavzusida konsultatsiyalar o'tkazildi. Loyiha davomida Angor, Sherobod, Muzrabot tumanlarida kasb-hunar maktablari bilan hamkorlikda yoshlar orasida “Sog'lom oila

– sog'lom jamiyat” mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi. Tanlov g'oliblariga esdalik sovg'alari topshirildi.

Loyiha davomida Angor, Sherobod tuman Adliya bo'limlari bilan hamkorlikda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari orasida o'z vaqtida nikohlarini rasmiylashtirishga moddiy imkoniyati yetmagan, sha'riy nikohda yashayotgan 8 nafar oilaning FXDYO bo'limlarida nikoh g'uvohnomalari rasmiylashtirishda amaliy yordam ko'rsatildi. Mahallalardagi notinch oilalar bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Ularga huquqiy, psixologik, tibbiy maslahat ko'rsatildi. Tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi, MFYlar bilan hamkorlikda “Oila tinch-yurt tinch” mavzusida namunali oilalar orasida ko'rik-tanlov tashkil qilindi. “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga ko'maklashish” va “Nikohdan oldingi tibbiy, huquqiy, psixologik konsultatsiyalar” mavzusida yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

G.YUSUPOVA,
“Ayol va shodlik”
NNT rahbari



BIR CHIMDIM MA'NAVIYAT



Tafakkur haqida tushuncha

Tafakkur - narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar amaliy vazifani hal etishda munosabatlarning ongimizda aks ettirilishi.

Inson atrof-olam (narsa, hodisalar, insonlarni) va o'zini turli xil faoliyatlarini bajarish va bu obektlarga ta'sir ko'rsatgan holda ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun o'rganadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko'rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda insonga aniq bir obektlar va ularning bevosita o'rganiladigan xossalari haqida ma'lumot beradi. Psixik aks ettirishning bu shakllari inson tomonidan obektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin

alohida jismlar va real olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan uch ahamiyatga ega bo'lgan savolga javob topish uchun etarli emas. Bu savollar: “yuzaga kelgan vaziyatda nimani, qay tarzda bajarish mumkin va bu harakat natijasida nima hosil bo'ladi?” dan iborat.

Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkur yordam beradi. Avvalambor, tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikni faol ijodiy aks ettirish va o'zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglamaydiganlarni ochib beradi; u olamni

ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog'liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat.

Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o'tish sodir bo'ladi. Shunday qilib, tafakkurni voqelikni umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish sifatida ta'riflash mumkin. Bundan tafakkurning muhim belgilaridan biri umumlashtirishdan iboratligi kelib chiqadi.

Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina odam va zamondoshlarining

emas, balki, o'tmish avlodlarining ham tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Bu tajriba til yordamida og'zaki va yozma nutqda (o'qituvchilar ma'ruzalarida, kitob, darsliklarda va h.k.) ifodalangan.

Shuning uchun tafakkur ko'plab adamlar bilimlarini umumlashtiradi. Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismlar va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlarga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi.

Muqaddas XOJAYOROVA,
30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

Sharq xalqlarining maqollari

Inson uchun eng og'iri-o'zligini anglash.

Samimiy so'z yurakka yo'l topadi.

Fikr ko'riligi ko'zning ko'rigidan yomon.

Og'zing bilan emas, qulog'ing bilan eshit.

Shubhadan haqiqat tug'iladi.

Izzat-hurmatimiz o'z qo'limizda.

Yaxshi gap-muxtasar.

Alloh bizni ovqatning kamligidan, so'zning ko'pligidan asrasini.

Odamning niqobi uning o'z so'zlaridir.

Bekor o'tirgandan ko'ra, bekor ishlagan yaxshi.

Yuzta hunarni pala-partish bilgandan ko'ra, bitta hunarni puxta bilgan yaxshi!

Notanish to'g'ri yo'ldan tanish qing'ir-qiyshiq yo'l yaqin.

Be'mani gap qilgandan ko'ra jim turgan ma'qul.

So'zni avval yaxshilab pishirib, keyin gapirgin.

Katta bilan ham, kichik bilan ham maslahatlashginu,

lekin o'z aqlingga suyanib ish qilgin.

Yuzlab donolarning dalil-isbotlarini yo'qqa chiqarib ham, nodonlikni yengolmaysan.

Bekor chining bo'sh vaqti bo'lmaydi.

Jahli chiqqanning ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ladi.

Yangilik bo'lgan joyda eskilik ham bo'ladi.

Agar riyokorlik o't bo'lib yonganida edi, o'tinning narxi yarmiga arzon bo'ladi.

O'zi hech nima qilmaydigan odam boshqalarga o'rgatishni yaxshi ko'radi.

O'zingga qanday muomala qilishlarini xohlasang, sen ham boshqalarga shunday muomala qil!

Gapirishdan avval so'zlaringning mahalanish darajasida ko'r!

Aql ko'p ekan, ochiq ko'zlardan ne foyda?

To'plovchi: Oyoat QAYUMOVA,
faxriy pedagog

Is gazi-ko'rinmas qotil

Is gazi (SO) rangsiz, hidsiz, ko'p uchraydigan zaharli birikma tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'irlari to'liq yonmasligi, chala yonishi oqibatida vujudga keladi.

Tutun tarkibida 3%, ishlangan gazda 13%, portlovchi gazlar tarkibida 50-60% gacha is gazi bo'ladi.

Is gazidan qator organik moddalar (aseton, metil spirt, fenol va boshqalar)ni sintez qilish uchun foydalaniladigan korxonalarda, avtoulav turar joylarda ventilyatsiya yomon bo'lganda, yangi bo'yalgan shamollatilmaydigan xonalarda, shuningdek, uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan istiladigan uylar, hammomlarda, dam olish palatkalarida isinish uchun cho'g' olovlar va boshqalardan foydalanganda yonish mahsulotining to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.

Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz kislorodga nisbatan 300 marotaba tez va ko'proq gemoglobinga birikish xususiyatiga ega, shuning uchun juda mahkam birikma-karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobin to'qimalarga kislorod tashish xususiyati juda pasayib, gipoksiyaga, og'ir zaharlanganda anoksiyaga olib kelishi mumkin.

Is gazining tarkibida temir moddasi bo'lib, u nafas olish fermentini parchalaydi. Bu o'z o'rnida, to'qimalarning nafas olish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Is gazi bilan zaharlangan organizmda uglerod va oqsil almashinuvi buziladi, natijada, asidoz alomatlarini yuzaga keladi. Bosh miyada bosimning oshishi kuzatiladi.

Organizmga kislorod yetishmasligi oqibatida markaziy

asab tizimi faoliyati buziladi. Shuningdek, tabiiy gazning xonada to'planishi oqibatida yong'in yoki portlash sodir bo'lishi mumkin.

Is gazi bilan zaharlangan kishini zudlik bilan toza havoga olib chiqish zarur, nafas olishi to'xtab qolganda sun'iy nafas berish lozim. Bu tadbir bemor mustaqil nafas olgunga qadar yoki biologik o'lim alomatlarini paydo bo'lguncha davom ettiriladi. Badanni ishqalash, oyoqlarga grella qo'yish, qisqa vaqt nashatir spirt bug'larini hidlatish (nashatir spirti bemor burnidan kamida 1 sm uzoqlikda shimdirilgan paxta yoki marli bo'lishi shart, aks holda spirtning o'tkir hidi bemorni paraliz holatiga olib kelishi mumkin) zaharlanish oqibatlarini tugatishga imkon beradi. Zaharlanib qolgan kishilar zudlik bilan kasalxonaga olib borilishi kerak, chunki birmuncha keyinroq o'pka va asab tizimida og'ir asoratlarni vujudga kelishi mumkin. Agar bemor hushida bo'lsa, tananing yuqori qismini qisib turuvchi kiyimlardan bo'shatiladi, issiq cho'y, qahva ichiriladi. Har qanday is gazidan zaharlanish darajasida bemorlar shoshilinch holda reanimatsiya yoki toksikologiya bo'limiga yotqiziladi. Kasalxonadan chiqqan bemorlar terapevt va nevropatolog kuzatuvda bo'lishi shart, aks holda keyinchalik uning asoratlari yuzaga chiqishi mumkin.

Agarda binoda gaz hidi sezilsa, oyna va eshiklarni zudlik bilan ochish, ko'chaga chiqish va 104 raqami orqali gaz xo'jaligi avariya-dispecherlik xizmati yoki 1050, 101 raqami bo'yicha qo'taruv xizmatiga qo'ng'iroq qilish kerak. Bunday holatlarda chiroq, olov yoqish, elektr uskunalarni ishga tushirish taqiqlanadi.

A.KO'CHAROV,
Angor tuman FVB boshlig'ining o'rinbosari
P va NB boshlig'i

AHOLINI RO'YXATGA OLISH QANDAY AMALGA OSHIRILADI

Mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi, tayyorgarlik bosqichi bo'lib, uch yilga yaqin vaqt davom etadi. Ikkinchi, asosiy bosqich bo'lib, bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari topshiriladi. Bu taxminan ikki oy muddatni tashkil etadi.

So'nggi bosqich qariyb uch yil davom etib, olingan ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinib, natijalar e'lon qilinadi.

Ro'yxatga olish jarayonida to'planadigan statistik

ma'lumotlar yagona elektron axborotlar tizimiga kiritiladi. Ya'ni bundan bu yog'iga qog'ozbozlikdan voz kechib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratiladi.

Ro'yxatga oluvchilarni tanlash ham eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ma'lumotlarning to'g'riligiga bevosita ayni ular mas'ul bo'ladi va shakllantirilgan ma'lumotlar real bo'lishi shart. Bu jarayonga jalb etiladigan xodimlar har xil yoshda va kasbda bo'lishi, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va uning viloyat, shahar va tuman bo'limlari xodimlari, statistik

talabalar, shuningdek, tayanich doktorantlar bo'lishi mumkin.

Yoshi va kasbidan qat'i nazar, aholini ro'yxatga oluvchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi va zarurat tug'ilsa, ularga to'g'chimcha maslahatlar beriladi. Aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni amalga hujjatlariga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq belgilanadi. Jarayonni davlat budjeti mablag'larini va qonun bilan taqablanmagan boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Amaldagi me'yoriy

hujjatlariga binoan, yakuniy ma'lumotlarni osh tilda e'lon qilinishi ko'zda tutilgan. Chora-tadbirlar dasturida aholini ro'yxatga olish natijalarini rasmiy chop etish, tarqatish, axborot bilan ta'minlash va e'lon qilish, aholini ro'yxatga olishning dastlabki va yakuniy ma'lumotlarini ya'ni tanishishning oxirgi chegara muddati belgilangan. Biroq agarda tezkor faoliyat yuritilsa, ushbu muddatdan oldin ham e'lon qilish imkoniyati mavjud.

A.XUDOROV,
Angor tuman statistika bo'limi boshlig'i

Yangi yil tarixi

Har bir xalqning otabobolaridan qolgan urfodatlar, udumlari bo'ladi. Yangi yilni bayram qilish ham shunday udumlardan biridir. Biz yangi yil haqida fikr yuritir ekanmiz beixtiyor ko'z o'ngimizda sovg'a-salomli Qorbobo va yasatilgan archa gavdalanadi.

Qorbobo qachondan boshlab yangi yil mehmoni bo'la boshlagan?

Qorboboning yoshi ming yildan ham ortiq qadimiy majusiylar diniy tasavvuriga ko'ra, Qorbobo Shimolda sovuq shamol tangrisining timsoli bo'lgan. Rivoyatlarda aytilishicha-sovuq shamol tangrisi Qorbobo muzdan yasalgan Saroyda yashab, har yili qishda quyosh yuzini parda bilan to'sib qo'yar va bahordagina pardani ko'tarar ekan. Vaqt o'tishi

bilan Qorbobo majusiylar e'tiqotidagi muqaddaslik ramzini yo'qotadi va bizning tushunchamizdagi Qorboboga, Yangi yil kirish arafasida xaltasini sovg'a-salomlar bilan to'ldirib, o'rmondan chiqib kelayotgan, insonlarga baxt-saodat tilaydigan Qorboboga aylanadi.

Yangi yil bayramida nega archa bezatiladi?

Shimol xalqlari bilan birgalikda qadimgi Slavyan xalqlarining qadimgi e'tiqodiga ko'ra archa baxt keltiruvchi daraxtdir. Baxt ramzi bo'lmish archa keyinchalik yangi yil bayramlarida odamlarning uylaridan o'rin oladigan bo'lib qoldi.

Yangi yilni bayram qilish qachondan odat tusiga kirgan?

Qadimgi vaqtlarda ko'pchilik xalqlar 21-martni yil boshi hisoblab, shu kunni bayram qilishgan.

Sharq xalqlarining barchasi, shuningdek, Italiya, Angliya, Rossiya xalqlari ham yangi yilni 21-martda kutib olishgan. 21-mart Muchal yili va o'n'iki burji hisobi bo'yicha hutning oxirgi kuni bo'lgan 22-martdan yangi yilning birinchi oyi-hamal boshlangan. 21-martda quyosh nuri ekvatorga tik tushadi. Shu kuni yer yuzining hamma joyida tun bilan kun bir-biriga teng bo'ladi. Bunga kecha-kunduzning darovarligi deyiladi. 21-martdan bahorgi kecha-kunduz barovarligi bo'lib hisoblanadi.

22-martdan shimoliy yarim sharda quyosh nuri ko'proq tusha boshlaydi. Tabiat butun borliq jolnadadi, dehqonchilikda dolzarb kunlar boshlanadi. Qadim zamonlarda yangi yilni martda kutib olinganligi boisi ham shu.

Z.OCHILOVA,
Angor axborot-kutubxona xodimi

O'RMONNING QIROLI SHER

Bir bor ekan, bir yo'q ekan bir o'rmonda shirol bolasi bilan yashar ekan. Ular o'rmonning qirol ekan. Uning bolasi juda inijq, yig'loqi, erinchoq ekan. Bir kuni o'rmon qirol shirol barcha hayvonlarni yig'ib ularga men qarib qoldim o'rningga yangi qirol kerak debdi. Hayvonlar hayron bo'lib qolishibdi.

Oradan bir necha oylar o'tib o'rmon qirol shirol vafot etibdi. Hayvonlar endi bizning qirolimiz kim bo'ladi deyishibdi. Maymun o'rtaga chiqib endi bizning qirolimiz Kuanna bo'ladi debdi. Hayvonlar hayron bo'lib bir-birlariga qarashibdi endi bizning qirolimiz Kuannami deyishibdi. Kuanna qirol bo'libdi. Lekin u qirol bo'lganidan hayvonlar undan norozi bo'libdi.

Chunki qirol Kuanna hammani uyiga borib har oy oziq-ovqat, meva va sabzavotlarni yig'ib olib yurar ekan. Shuning uchun ular qirol Kuannani yomon ko'rar ekan.

Kunlardan bir kuni qirol Kuanna o'rmonga sayrga chiqmoqchi bo'libdi. Xizmatkorlariga “boringlar yo'qollaring hammalaring” deb baqiribdi tahtimni tayyorlanglar-, debdi.

Xizmatkorlari qirol baqirganidan xafa bo'lishibdi. Oradan kunlar o'tib Qirol Kuanna tush ko'ribdi. Tushiga otasi kiribdi, o'g'lim sen xizmatkorlarigini xafa qilding debdi. Kuanna otasidan, xizmatkorlaridan kechirim so'rabdi. Kuanna xizmatkorlari va hayvonlar bilan ahil bo'lib birga hayot kechirishibdi.

Nozima RO'ZIQULOVA,
28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi

Angor yog'dusi

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi va tuman hokimligi

Muharrir:
JUMAYEVA
GAVHAR TOSHTEMIROVNA

Tahrir hay'ati:
B.Hakimov (hay'at raisi),
SH.Murodov, A.Saidov,
A.Qorayev, SH.Omonov.

Gazeta 2012 yil 6 dekabrda viloyat matbuot va axborot xududiy boshqarmasida 11-054 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Nashr indeksi 48643. Buyurtma 26. 2000 nusxada bosiladi. Hajmi -2 bosma toboq. Bichimi A-2. ISSN-2181-7014

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Internetdagi saytimiz: / angortimes.uz /

Gazeta “Angor yog'dusi” kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Sahifalovchi dizayner: S.Rahmatov Matn teruvchi: S.Qobulova

Tahririyat manzili: Angor qo'rg'oni, «8-Mart» ko'chasi, 15-uy. Tel: 76-31-21-367. Sotuvda erkin narxda.
Navbatchi muharrir: G.Jumayeva.

Gazeta «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Topshirish vaqti 11:00 Topshirildi 11:30.